




## Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-may)

B - Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqaradigan sanoat

• B - 32,9 mlrd.soʻm

• C - 1818,4 mlrd.soʻm



• D - 121,6 mlrd.soʻm

• E - 20,3 mlrd.soʻm

D - Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilish

Dastlabki maʼlumotlar boʻyicha 2020- yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 1993,2 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 101,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga toʻgʻri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 91,2 % ni tashkil etdi.




## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha sanoat ishlab chiqarish

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi koʻpayishining asosiy omili boʻlib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 8,6 % ga, elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash – 2,7 % ga hamda suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilishda - 18,5 % oʻsishi kuzatildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi oʻzgarishini tavsiflovchi nisbiy koʻrsatkichdir.



**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi**




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 32,9 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,7 % ini tashkil etdi.



**Tumanlar miqyosida, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mlrd. so'mda**

Tumanlar miqyosida olib qaralganda, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi bo'yicha asosiy ulush G'allaorol, Zomin va Forish tumanlari hamda Jizzax shahriga to'g'ri keladi.




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash hajmi, tumanlar kesimida, mln. soʻmda	2019-yil yanvar-may	2020-yil yanvar-may	Ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi*%
Gʻallaorol tumani	4496,6	12326,6	171,3
Zomin tumani	12212,7	7965,7	40,8
Forish tumani	5831,3	6478,1	96,4
Jizzax shahri	2400,5	1832,5	66,3
Baxmal tumani	770,4	1058,2	85,8
Zafarobod tumani	593,1	886,1	93,4
Sharof Rashidov tumani	10958,3	2249,8	12,8



### Ishlab chiqaradigan sanoat


2020- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1818,4 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 91,2 % ini tashkil etdi.





**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi  
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 3,8 % ni (2019- yil yanvar-may oylarida - 6,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 4,2 % (0,7 %), o'rta-quyi texnologiyali – 15,8 % (36,1 %) va quyi texnologiyalisi – 76,2 % (56,6 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 48,0 % (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 128,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 17,0 % (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 84,6 %), mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 8,7 % (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 109,3 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 2,4 % (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,8 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,4 % (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 65,2 %) ni tashkil etdi.



### Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020- yilning yanvar-may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 28,4 ming tonna bug'doy uni (2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 16,2 % ga o'sgan), 24,2 ming tonna paxta tolasi (18,6 %), 8,4 ming tonna bir qavatli ip (11,4 %), 0,7 ming tonna trikotaj polotno mahsulotlari (3,4 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.




### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-may	2020- yil yanvar-may	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	24470,0	28432	3962
Paxta tolasi, t.	28434,4	24191,4	-4243
O'simlik yog'i (tozalangan), t.	5022,0	3906,0	-1116
Bir qavatli ip, t	7576,1	8438,7	862,6
Trikotaj polotnolar, t	737,0	762,0	25
Paxta linti, t.	2053,0	1997,9	-55,1



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 121,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,1 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,7 % ga oshganligi kuzatildi.




### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-may	2020- yil yanvar-may	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	60338,7	92883,5	32544,8
Boshqa bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming gkal	6,160	5,757	-0,403
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	30205,4	28366,8	-1838,6



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 20,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ini) tashkil etdi.



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-may	2020- yil yanvar-may	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash, Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	7717,2	10285,6	2568,4
Qayta foydalanishga yaroqsiz boshqa xafsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	6375,0	8763,0	2388,0


O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 19,9 % ga, Qayta foydalanishga yaroqsiz boshqa xafsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 17,1 % ga oshganligi kuzatildi.



### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 766,3 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 3,0 % ga tushgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 38,4 % ni tashkil etdi.

2020 - yil  
yanvar-may



- oziq-ovqat mahsulotlari
- nooziq-ovqat mahsulotlari

2019- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020- yil yanvar-mayl oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 63,5 % dan 61,0 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 36,8 % ni, shuningdek, Do'stlik tumani 11,2 % ni, Sharof Rashidov tumani 9,5 % ni, Zomin tumani 9,1 % ni hamda Paxtakor tumani 5,9 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, viloyatda iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati yuqori ko'rsatkich Paxtakor (138,2 %), Arnasoy (128,1 %), Yangiobod (126,1 %), Zomin (111,3 %) hamda Forish (110,0 %) tumanlarida qayd etildi.





**Tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
(2020- yilning yanvar-may oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>766,3</b>	<b>100,0</b>	<b>97,0</b>
<b>Jizzax shahar</b>	<b>282,1</b>	<b>36,8</b>	<b>97,9</b>
<i>tumanlar:</i>			
<b>Arnasoy</b>	<b>28,9</b>	<b>3,8</b>	<b>128,1</b>
<b>Baxmal</b>	<b>25,0</b>	<b>3,3</b>	<b>89,3</b>
<b>G'allaorol</b>	<b>31,2</b>	<b>4,0</b>	<b>98,3</b>
<b>Sharof Rashidov</b>	<b>72,4</b>	<b>9,5</b>	<b>82,5</b>
<b>Do'stlik</b>	<b>85,7</b>	<b>11,2</b>	<b>80,5</b>
<b>Zomin</b>	<b>69,7</b>	<b>9,1</b>	<b>111,3</b>
<b>Zarbdor</b>	<b>25,4</b>	<b>3,3</b>	<b>67,1</b>
<b>Zafarobod</b>	<b>19,2</b>	<b>2,5</b>	<b>103,5</b>
<b>Mirzacho'l</b>	<b>20,1</b>	<b>2,6</b>	<b>96,5</b>
<b>Paxtakor</b>	<b>45,5</b>	<b>5,9</b>	<b>138,2</b>
<b>Forish</b>	<b>37,5</b>	<b>4,9</b>	<b>110,0</b>
<b>Yangiobod</b>	<b>23,5</b>	<b>3,1</b>	<b>126,1</b>

Tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 29,2 %, shuningdek, Do'stlik tumani 20,5 % ni, Zomin tumani 9,4 % ni, Paxtakor tumani 9,0 % ni hamda Zarbdor tumani 4,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahri (181,1 %), Paxtakor tumani (146,2 %), Zafarobod tumanida (103,4 %) qayd etildi.



Jizzax viloyatining tumanlar kesimida  
sanoat ishlab chiqarish hajmlari

	2020- yil yanvar-may <i>mlrd. so'm</i>	Fizik hajm indeksi, % da
<b>Jizzax viloyati</b>	1993,2	<b>101,9</b>
<b>Jizzax shahar</b>	767,0	98,8
<i>tumanlar:</i>		
<b>Arnasoy</b>	68,8	105,4
<b>Baxmal</b>	25,2	94,2
<b>G'allaorol</b>	46,7	101,3
<b>Sharof Rashidov</b>	104,0	106,4
<b>Do'stlik</b>	378,1	111,4
<b>Zomin</b>	93,4	113,8
<b>Zarbdor</b>	92,0	90,6
<b>Zafarobod</b>	123,8	127,7
<b>Mirzacho'l</b>	21,2	95,4
<b>Paxtakor</b>	190,4	164,6
<b>Forish</b>	59,0	101,5
<b>Yangiobod</b>	23,6	91,0



**Jizzax viloyati tumanlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**


Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining ko'payishiga, Paxtakor (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan 164,6 %), Zafarobod (127,7%), Zomin (113,8 %), Do'stlik (111,4 %), Sharof Rashidov (106,4 %) hamda Arnasoy (105,4 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada ko'tarilganligi bilan izohlashimiz mumkin.

Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi, % da		Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish o'sish sur'ati, % da
90,6	Zarbdor	67,1
91,0	Yangiobod	126,1
94,2	Baxmal	89,3
95,4	Mirzacho'l	96,5
98,8	Jizzax shahar	97,9
101,3	G'allaorol	98,3
101,5	Forish	110,0
105,4	Arnasoy	128,1
106,4	Sharof Rashidov	82,5
111,4	Do'stlik	80,5
113,8	Zomin	111,3
127,7	Zafarobod	103,5
164,6	Paxtakor	138,2

Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Zarbdor (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan 67,1 %), Do'stlik (80,5 %), Sharof Rashidov (82,5 %), Baxmal (89,3 %), Mirzacho'l (96,5 %), tumanlarida hamda Jizzax shahrida (97,9 %), sezilarli darajada tushdi.



**Jizzax viloyati jami sanoat  
mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Jizzax shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 38,5 %), Do'stlik (19,0 %), Paxtakor (9,5 %), Zafarobod (6,2 %), hamda Sharof Rashidov (5,2 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Mirzacho'l (1,1 %) hamda Yangiobod (1,2 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Do'stlik (5 771,7 ming so'm), Jizzax shahar (4 308,7 ming so'm), Paxtakor (2 556,8 ming so'm), Zafarobod (2 484,1 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1 438,8 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 553,1 ming so'm bo'lgani holda, Jizzax shahrida – 1 584,7 ming so'mni, Do'stlik tumanida – 1 307,8 ming so'mni, Yangiobod tumanida – 835,3 ming so'mni, Arnasoy tumanida 630,0 ming so'mni, Paxtakor tumanida 611,3 ming so'mni tashkil etdi.




**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**  
(2020- yil yanvar-may oylarida, ming so'm)

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>3066,9</b>	<b>553,1</b>
<b>Jizzax shahar</b>	<b>4308,7</b>	<b>1584,7</b>
<i>tumanlar:</i>		
<b>Arnasoy</b>	<b>1497,5</b>	<b>630,0</b>
<b>Baxmal</b>	<b>161,4</b>	<b>159,8</b>
<b>G'allaorol</b>	<b>271,9</b>	<b>181,6</b>
<b>Sharof Rashidov</b>	<b>470,6</b>	<b>327,7</b>
<b>Do'stlik</b>	<b>5771,7</b>	<b>1307,8</b>
<b>Zomin</b>	<b>569,6</b>	<b>425,4</b>
<b>Zarbdor</b>	<b>1067,5</b>	<b>295,0</b>
<b>Zafarobod</b>	<b>2484,1</b>	<b>385,2</b>
<b>Mirzacho'l</b>	<b>410,2</b>	<b>388,2</b>
<b>Paxtakor</b>	<b>2556,8</b>	<b>611,3</b>
<b>Forish</b>	<b>638,0</b>	<b>405,3</b>
<b>Yangiobod</b>	<b>838,7</b>	<b>835,3</b>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>1497,5</b>	<b>630,0</b>



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda  
kichik biznesning ulushi**  
(2020- yil yanvar-may oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 941,4 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 47,2 % ni tashkil etdi.



Viloyatimiz tumanlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Zafarobod (15,4 %), Zarbdor (24,7 %) va Arnasoy (33,1 %) tumalarida hamda Jizzax shahrida (38,3 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



**Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**  
(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 2979 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 963 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 32,3 % i) Jizzax shahriga, 631 tasi (21,2 %) Sharof Rashidov tumaniga, 260 tasi (8,7 %) G'allaorol tumaniga, 246 tasi (8,3 %) Zomin tumaniga, 138 tasi (4,6 %) Forish tumaniga, 116 tasi (3,9 %) Zarbdor tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda		Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda
17	Yangiobod	57
5	Arnasoy	62
17	Zafarobod	86
14	Mirzacho'l	86
6	Baxmal	104
12	Paxtakor	113
20	Zarbdor	116
19	Do'stlik	117
20	Forish	138
18	Zomin	246
18	G'allaorol	260
42	Sharof Rashidov	631
42	Jizzax shahar	963

2020- yil yanvar - may oyida viloyatda 250 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 42 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 16,8 %) Jizzax shahrida, 42 tasi (16,8 %) Sharof Rashidov tumanida, 20 tasi (8,0 %) Zarbdor tumanida, 20 tasi (8,0 %) Forish tumanida, 19 tasi (7,6 %) Do'stlik tumanida hamda 18 tasi (7,2 %) Zomin tumanida tashkil etildi.

**Sanoat statistikasi bo'limi**

Tel.: (72) 221-51-13